



“ROHATI DIL”–QALB TASKINI

Zaripova Dilduza Baxtiyorovna

Ichki ishlar vazirligi

Buxoro akademik litseyi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xojanazar Huvaydoning “Rohati dil” asari tahlil qilinadi hamda uning inson qalbiga ruhiy taskin beruvchi, ma'naviy poklanishga chorlovchi jihatlari yoritiladi. Asarning asosiy g'oyalari, badiiy-uslubiy xususiyatlari va tasavvufiy ruhda yaratilgani ochib beriladi. Muallifning axloqiy-falsafiy qarashlari, ruhiy yetuklikka erishish borasidagi targ'ibotlari bugungi kun o'quvchisi uchun ham dolzarb ekani ta'kidlanadi. Maqola orqali “Rohati dil” asarining adabiy qadri va inson ruhiyatiga ijobiy ta'siri ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: “Rohati dil”, qalb taskini, tasavvuf, axloq, ma'naviyat, ruhiy poklik, adabiy tahlil, badiiy asar, so'fiyona tafakkur.

Huvaydo mumtoz adabiyotimizdagi didaktik nasrchilik hamda epik dostonchilik an'alarini davom ettirib, diniy-irfoniy manzumasini qalbni barcha g'ubor, nuqsonlardan poklovchi “Rohati dil” deb atadi. Asarni turkiy (eski o'zbek) tilda, she'riyatning masnaviy shaklda yaratdi.

“Rohati dil” asari Huvaydoning hayotiy falsafasi, axloqiy qarashlari va so'fiyona tafakkurining mahsulidir. Unda insoniy fazilatlar – sabr, toqat, poklik, halollik, muhabbat kabi tushunchalar madh etiladi. Asarda qalb pokligi, ruhiy osoyishtalik insonning asosiy baxti sifatida tasvirlanadi. Huvaydo fikricha, inson o'z qalbini yomon niyat, hasad va buzuvchi fikrlardan tozalasa, chinakam taskin topadi.

Xojanazar Huvaydo o'z asarida sodda, ammo chuqur ma'noli tilda yozadi. She'rlarida xalqona iboralar, maqollar, murakkab badiiy tasvir vositalari mohirlik bilan qo'llaniladi. Bu esa asarni nafaqat didaktik, balki badiiy jihatdan ham



yuksak darajaga olib chiqadi. Shuningdek, asarda soʻfiyona ohang kuchli seziladi – bu Huvaydoning tasavvufga yaqinligini koʻrsatadi.

Bugungi zamonda, insonlar koʻplab tashvishlar va stresslarga duch kelayotgan bir paytda, “Rohati dil” asari oʻzining mazmuni bilan hali-hamon dolzarbligini yoʻqotmagan. Undagi axloqiy saboqlar, ruhiy totuvlikka daʼvat qiluvchi gʻoyalar oʻquvchini oʻz qalbini tinglashga, ichki dunyosini tarbiyalashga undaydi. Asar xuddi bir maʼnaviy koʻzgudek – odam oʻzining ichki olamini koʻradi va uni tozalashga harakat qiladi.

Dostonning “Nurnoma” bobida olamning yaratilishi, Muhammad paygʻambar ikki olamning rahmati, moʻminlar sarvari ekanligini; “Qiyomatnoma” deb atalgan bobida maxsharning olti qiyofasini; “Doʻzaxning sifatleri” bobida Jabroyil doʻzaxning taʼrifini Rasulullohga bayon etadi. Doʻzaxning etti eshigi (tamugʻ, xoviya, jahannam, saqar, natto, saʼiyr, xutama, nor)ni tavsiflaydi. Har bir eshikdan qaysi toifa odamlarning kirishini birma-bir bayon etadi. Jahm eshigidan zinokorlar, yolgʻ onchilar, imomiga xiyonat qilganlar, chaqimchilar tashlanadi. Zolimlar, poraxoʻr qozilar, harom luqma egan olimlarning joyi Saqardadir. Shaytonga hamroh boʻlganlarning oʻrni esa Luzodadir. Saʼirda esa sharobxoʻrlar va rabo olgʻ uchilar, tarozidan urib qolguvchi toifa odamlar tashlanadi. Xatmada esa Qurʼonni oʻqib, bilmaynatoʻgʻri tavsiflaganlar, hadisdan oʻz manfaati yoʻlida foydalanganlar yotadilar. Yettinchisining ismi Nor boʻlib benamozlarga neʼmat berganlar, qoʻshnisining nasihatlarini olmaganlar, haromdan qaytmaydigan savdogarlar shu joyga keltiriladilar.

“Rohati dil” asari dastlab nasriy shaklda yaratilgan keyin esa nazmda yozilgan. Bu haqda shoirning oʻzi taʼkidlaydi:

*“Rohati dil” kit ovlash otidir,
Erur har bir suzi tanbehi rofil.
Kungulning pahri sori azm qildim.
Kitobim nasr erdi, nazm qildim”.*

(“Rohati dil”. –B.16).



“Rohati dil”– bu misrada “dilning rohatini toppish”, ya’ni qalb taskinini topish maqsad qilingan. “Kit ovlash otidir”– bu ibora obrazli bo‘lib, “kitob yozish – qalb rohatini ovlash otidir (vositasidir)” degan ma’noni bildiradi. Uning har bir so‘zi nafs istaklariga tanbeh bo‘lib xizmat qiladi. Qalbimning intilishi sari yo‘l oldim, avval nasrda bo‘lgan asarimni she’r shaklida ifodaladim.

Mumtoz adabiyotimiz vakillari barkamol insonni tarbiyalashni muhim vazifa, burch deb bilar ekan, zamondoshlariga kamolotga, ma’naviy xazinalarga yo‘l ko‘rsatishni asosiy vazifa hisoblagan. Jumladan, Huvaydo “Rohati dil” dostonini hamxuddi shu muammolarga bag‘ishlagan. Ma’naviy-axloqiy, din-tasavvufiy tarbiya, inson kamoloti masalalari Xo‘janazar Huvaydo ijodida asosiy o‘rin egallaydi.

“Rohati dil” dostoni badiiy jihatdan teran va o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan adabiy manbadir. Huvaydo har bir hikoyatning hayotiy mazmuni va bosh qahramonning qiyofasini badiiy ifodada ochib berishga kirishar ekan, o‘ziga xos uslub, yuksak badiiylik, tilning ravonligi, she’rning jarangdor va o‘ynoqiligini rang-barang bo‘yoqlar orqali ochib beradi “Rohati dil” asariga kirgan hikoyat va rivoyatlarning asosiy yo‘nalishi islom dinining qisqacha bo‘lsa-da tarixiga murojaat etish va islom dini asoslarini bayon qiluvchi rivoyatlar, diniy-axloqiy hikoyalar orqali insonning ongihamda uning tashqi va ichki dunyosini islom ma’naviyati bilan boyitishga qaratilgandir. “Rohati dil” asarining asosiy g‘oyasini insonning ichki dunyosini shakllantirish, eng avvalo, insonda e’tiqodning sobit o‘rin olishini, so‘ngra islom dini ruknlariga ongli ravishda amal qilish kabi mavzular tashkil etadi. Dostonga kirgan harbir hikoya va uning qahramoni o‘ziga xos ilohiy tuyg‘ular bilan to‘lib-toshgan. Bundayomil asar obrazlarining hayajonli va to‘laqonliligini ta’minlagan. Hikoyalarning deyarli hammasida voqealarning ishtirokchilari muallifning falsafiy e’tiqodi bilan chambarchas bog‘langan insonlardir. Ular ichki guruhlariga bo‘linadilar: birinchi guruhdagilar iymon, soflik, halollik, poklik, insoniylik kabi fazilatlar timsoli sifatida rivoyatlarda ishtirok etsalar, ikkinchi toifadagilar buning teskarisi, ya’ni g‘azab-nafrat uyg‘otadigan qiyofadagi obrazlardir. Asar boshdan oyoq o‘quvchilar qalbida eng



nozik his tuyg'ularni uyg'otadi, ularda hayotga muhabbat, iymonli, pok e'tiqod egasi bo'lishga chorlaydi. Kitobda keltirilgan rivoyat va hikoyatlarning aksariyati o'z manbasiga ega va ular tarixiy kitoblardan olingan. Shuningdek, asardagi turli qiziqarliva ibratomuz voqealar asar qahramonlarining taqdiri bilan mustahkam bog'lanib ketadi. Har bir inson o'z qilmishi, yurish-turishi va amallariga ko'ra ma'lum bahoga sazovor bo'ladi. Asarning markazida, musulmon olamidagi Alloh yaratgan banda – inson yotadi. Huvaydo har bir hikoyatning hayotiy mazmuni va bosh qahramonning qiyofasini badiiy ifodada ochib berishga kirishar ekan, o'ziga xos uslub, yuksak badiiylilik, tilning ravonligi, she'ning jarangdor va o'ynoqiligini rang-barang bo'yoqlarorqali ochib beradi. Dostondagi har bir misra o'quvchini to'liqlantiradi, undagi chuqur mazmunni idrok etishga chorlaydi.

Huvaydo o'z nuqtayi nazarlarini bayon etish jarayonida Qur'on va hadisga murojaat qiladi. Qur'oni karim va payg'ambarimiz (s.a.v) hadisi shariflari jamiyat ma'naviyatining ajralmas va muhim qismiga aylangani odamlarning ongiga singdirilgani va kundalik hayotning hamma sohalarida qo'llanilganligi uchun ham she'riy tarzda bayon etadi. Musulmon dunyosida amalga oshiriladigan har bir savobli, xayrli ishning "Bismillohir rahmonir rahim" ilohiy jumlasini bilan boshlanishi muqaddasan'anadir. Alouddin Mansur bu suraning fazilatlarini haqida shunday yozadi: "Qur'ondagi suralarning joylashishi tartibida avvalgi o'rinda turgani qisqa bo'lishiga qaramasdan Qur'onning asosiy mazmun mohiyatini o'zida mujassam etgani uchun ham u Qur'on mazmunini ochuvchi deb nomlangan¹.

Jamiyatni ma'naviy yuksaklikka ko'tarish, komil insonni tarbiyalab etishtirish o'zbek xalqining azaliy orzusi bo'lgan. Ayniqsa, bugungi milliy mustaqillik mafkurasi yangi avlod ma'naviy kamolotini taqozo etadi. Ma'naviy kamolot tarbiyasining eng muhim omillaridan milliy, madaniy meros namunalari mutolaasidir. Ulug' o'zbek shoiri Xo'janazar Huvaydo ijodi merosida ma'naviy barkamol shaxslarni kamol toptirishga oid o'ta dolzarb axloq-odob muammolari

¹ Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi/Tarjima va izohlar muallifi. A. Mansur.–T.:Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001. – B. 534



nozik shoirona kechinma, mushohadalar vositasi ila badiiy ifodalangan. Sharqona axloq, odamiylik nizomlari Huvaydo nazmida tasavvuf ta'limotining falsafiy g'oyalari hamda badiiy timsollari bilan uyg'un yo'g'rilgan.

Xojanazar Huvaydoning "Rohati dil" asari nafaqat adabiy yodgorlik, balki ma'naviy-ma'rifiy qo'llanmadir. U o'quvchini ichki osoyishtalik sari yetaklaydi, qalbda taskin uyg'otadi. Bu asar bugungi kunda ham o'z qadrini yo'qotmagan, aksincha, har bir insonga kerakli saboq va ilhom manbayi bo'la oladi. "Rohati dil" dostonining asosiy g'oyasi komil inson shaxsini kamol topishda e'tiqod sofliqi, iymon mustahkamligini shakllantirishdur. Insonda iymon-e'tiqod yetakchi o'rin olishida shoir islom dinining asosiy ruknlariga amal qilishlik lozim deb biladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qur'oni karim. (Alouddin Mansur tarjimasi). –T.: Movorounnahr, 2019. – B.142.
2. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi/Tarjima va izohlar muallifi. A. Mansur.–T.:Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001. – B. 534
3. А.Худойбердиев. Жизнь и творчества Ходжаназара Хувайдо. – дисс.кан.наук. –С.163.
4. Huvaydo. Devon. (Nashrga tayyorlovchi: Q.Ro'zimatzoda). –T.: Yangi asr avlodi, 2017. –B.9.
5. Huvaydo. Rohati dil. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
6. Zaripova, D. (2023). Khojanazar huvaiddo is a major representative of uzbek classical literature. *Science and innovation*, 2(b1), 124-126
7. Bakhtiorovna, Z. D. (2023). HISTORY OF THE HUVAYDO'S WORKS STUDY. *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR)*, 9(10), 4-7.